



## DUO NUTQIY JANRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Azimov A.N.,

ADPI, Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi  
[akbarshohazimov3@gmail.com](mailto:akbarshohazimov3@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243859>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan teolingvistikaning rivojlanish jarayoni hamda uning asosiy tadqiqot obyekti bo‘lgan diniy nutqiy janrlar, xususan, duo janri tahlil qilingan. Shuningdek, duo nutqiy janrining o‘ziga xos xususiyatlari, tarkibiy tuzilishi va ifoda vositalari yoritilib, uning diniy va lingvistik jihatlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** teolingvistika, antroposentrizm, diniy janrlar, duo nutqiy janri, duo janrining subjanrlari.

XX-XXI asr tilshunosligi o‘zining tadqiqot markaziga inson omilini qo‘yishi bu orqali esa, tilshunoslikning yangi yo‘nalishi sifatida antroposentrizm tadqiqotlarning keng ko‘lamda olib borilganligi bilan xarakterlanadi. Antroposentrik tadqiqotlar ko‘lamida unga parallel ravishda sotsiolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya kabi sohalar qatorida yangi yo‘nalish sifatida e‘trof etilayotgan teolingvistika yo‘nalishi ham til sathida boy imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ko‘plab tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilmoqda. Teolingvistik tadqiqotlar ko‘lamida diniy matnlarning o‘ziga xosligi, diniy matnlarning funksional-stilistik tahlili hamda muqaddas kitobimiz Qur‘oni Karim tafsiriga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarni misol qilishimiz mumkin.

Jahon tilshunosligida teolingvistikaga oid tadqiqotlar o‘tgan asrning ikkinchi yarimidan boshlanib, u haqida dastlabki nazariy qarashlar ilgari surila boshlagan. Jumladan rus olimlarida M.Baxtin, V.Voloshinov, L.Murzinova, T.Shmeleva, E.Levontina, A.Chudinova kabi olimlar diniy matnlar hamda ularning lisoniy tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari olib borganlar. O‘zbek tadqiqotchilari orasida teolingvistikaga oid ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilib borilayotganligi ham hozirgi kunda mazkur yo‘nalishga bo‘lgan qiziqishning keng ko‘lamda ortgani bilan izohlashimiz mumkin. Xususan N.M. Uloqov, Sh.M Sultonova, T. Yuldashev, N.U.Ismoilova kabi bir qator yirik olimlar teolingvistika yo‘nalishida samarali tadqiqot ishlari olib bordilar. N.Uloqov o‘zining tadqiqotida diniy matnlarning ekzotik leksikasi haqida fikr yuritgan bo‘lsa [5], Sh. Sultonova diniy leksikani diniy frazeologik birliklarning tarkibiy qismi ekanligi haqida tadqiqot ishlarini olib borgan [4:114-120]. N.Ismoilova muqaddas kitobimiz “Qur‘oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari mavzusi” [2:140] da tadqiqot ishini olib borganligi bilan alohida e‘tiborga sazovordir. Ammo teolingvistik tadqiqotlar



ko‘lamida diniy nutqiy janrlar masalasiga yetarlicha e‘tibor berilmagani, diniy nutqiy janrlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning ijtimoiy vazifasi haqida firklarining to‘laqonli tekshirilmaganligi teolingvistik tadqiqotlar ko‘lamida diniy nutqiy janrlar masalasi ham alohida mavzu sifatida keng ko‘lamda o‘rganilishni taqozo etadigan masalalarni o‘rtaga qo‘yishi shubhasizdir. Diniy nutqiy janrlar qatoriga xutbalar [juma xutbalari, boshqa diniy marosimlarda aytiladigan xutbalar], va‘zlar [nasihat nutqlari], duolar, diniy marosimlar [nikoh, janoza, aqiqa], qasidalar va diniy mazmundagi she‘rlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha nutq ko‘rinishlari alohida olinganda o‘zining bir qancha xususiyatlari bilan bir-biridan farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Biz mazkur maqolada diniy nutqiy janrlarda eng ko‘p qo‘llaniluvchi duo nutqiy janri haqida so‘z yuritmoqchimiz.

Barchamizga ma‘lumki, duo – ilohiy ishonch orqali insonning o‘zini yaratuvchisi bo‘lgan ulug‘ zotga murojaati bo‘lib, unda inson o‘zining ezgu orzu maqsadlarining ro‘yobga chiqishini so‘rab yaratganga iltijo qiladi. Nutqiy janrlar yuzasidan tadqiqot ishi olib borgan D.Sayfullayeva o‘zining tadqiqotida “Bir mazmuniy paradigma asosida birlashgan bir nechta nutqiy aktlarning birlashmasi nutqiy janrlarni tashkil etishi” [3:143] ni ta‘kidlab o‘tgan. Demak, muloqot jarayonida adresant tomonidan aytilayotgan bir nechta nutqiy aktlar birlashib yakunda ma‘lum bir nutqiy janrni hosil qiladi. Umuman olganda nutqiy janrlar haqida dastlabki tadqiqot ishlarini olib borgan rus tilshunoslari M.Baxtin, V.V. Dementevlarning nazariy fikrlarida ham nutqiy janrning hosil bo‘lishida adresant tomonidan aytilayotgan bir nechta nutqiy aktlarning birlashishi taqozo etilishi haqida fikrlar bayon etilgan. Duo nutqiy janri ham ayan shu nazariy fikr talabalariga to‘liq mos keladi. Masalan: “*Bismillahir rohmanir rohim. Alloh rahmat qilsin, oxiratlari obod bo‘lsin. Xudoyim, bu marhum-musulmon bandalaringning gunohlarini mag‘firat et, qabrlarini nurga to‘ldir, jannatingni nasib aylagin. Omin, Ollohu akbar!*” Mazkur duo hayotdan ko‘z yumib vafot etgan inson haqqiga qilingan duodir. Bu misolda berilgan duo matnida ham adresant tomonidan avvalo yaratganga murojaat qilinayotganligini ko‘ramiz, chunki mazkur duo matnining “**Bismillahir rohmanir rohim**”. [Mehribon va rahmli olloh nomi bilan boshlayman] jumlasini bilan boshlanishida adresantning bevosita o‘z yaratuvchisi bo‘lgan ulug‘ zotga yuzlanishining guvohi bo‘lamiz. Duoning davomida “**Alloh rahmat qilsin, oxiratlari obod bo‘lsin**” matnidagi adresantning marhum insonning haqqiga yaratgandan ijobiy tilaklar tilash orqali yaxshilikni umid qilayotgan bo‘lsa, “**Xudoyim**, bu marhum-musulmon bandalaringning gunohlarini mag‘firat et, qabrlarini nurga to‘ldir, jannatingni nasib aylagin” jumlasida *Xudoyim* so‘zi orqali



yana yaratganga murojaat, undan so‘ng yana ezgu tilaklarning aytilishi, duoning yakunida **“Omin, Olluhu akbar!”** deb yuzga fотиha tortilishi bilan yana yaratganga murojaat [Omin so‘zining lug‘aviy ma‘nosi *“Duoyimizni ijobat ayla!”*, *“Ey, Alloh! Ijobat qil!”* degan ma‘nolarni anglatadi] qilinishi kuzatiladi. Demak, mazkur duo matni to‘liq holda shakllanguncha bo‘lgan davrda **murojaat+tilak+murojaat+tilak+murojaat** qolipida bo‘lib, murojaat hamda tilak aktlarining o‘zaro bir mazmuniy paradigma asosida birikuvidan yaxlit bir nutqiy janrning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lmoqda. Yoki xalqimiz orasida ota-onalar tomonidan o‘z farzandining baxt-u istiqbolini ko‘zlab doimiy ravishda ular haqqiga duo qilish an‘anasi mavjud. Misol uchun *“Ey yaratgan egam! Farzandimning umrini uzoq, rizqini butun, baxtini yorug‘ qilgin. Uning yo‘llarini ravon, ishlarini barakali etgin”* duosida ham adresantning **“Ey yaratgan egam”** jumlasini orqali yaratganga murojaati ifodalanayotgan bo‘lsa, matnning davomida **“Farzandimning umrini uzoq, rizqini butun, baxtini yorug‘ qilgin”** farzandi haqqiga ezgulikni tilashi hamda matnning yakunida **“Uning yo‘llarini ravon, ishlarini barakali etgin”** yana yaratgandan farzandi uchun yaxshiliklarni umid qilishini ko‘ramiz, ya‘ni adresant tomonidan yaratganga **murojaat+tilak+tilak** qolipi asosida duo matni shakllanmoqda. Demak, insonlar tomonidan kundalik hayot davomida o‘z yaratuvchisiga e‘tiqodi, murojaati, iltijosi, o‘tinchi duo janrini yuzaga kelishda asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Xulosa qilib aytsak**, teolingvistika yo‘nalishida yangi tadqiqotlar olib borish orqali din va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, jamiyatning diniy va madaniy tuzilishini tahlil qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotlarda orasida diniy nutqiy janrlarni keng ko‘lamda tadqiq etish orqali esa, bu janrlarning jamiyatdagi vazifalarini o‘rganish uchun ham muhim ilmiy imkoniyatlarni yaratib beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 16.04.2018-yildagi PF-5416-son. <https://lex.uz/docs/3686277>.
2. Ismoilova N.U. Qur‘oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari. Filol. Fan.b.f.d [PhD] diss. – Andijon, 2023. – B. 140.
3. Sayfullayeva D. O‘zbek tilida “Tilak” nutqiy janrning lingvistik xususiyatlari. Filol. Fan.b.f.d [PhD] diss. – Andijon, 2024. –B. 143
4. Султонова Ш.М. Диний лексика диний фразеологик бирликларнинг таркибий қисми сифатида // Илмий хабарнома. Серия: Гуманитар тадқиқотлар. – № 5[49]. – Андижон, 2020. – Б. 114-120.
5. Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997.